

"IJTIMOIY FAOLLIK" VA "KOMPETENTLIK" TUSHUNCHALARINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI YORITUVCHI TADQIQOTLAR

p.f.f.d. (PhD)., dots Sh.E.Yakubova

Urganch davlat pedagogika instituti

E-mail: yakuborash27@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada "ijtimoiy faollik" va "kompetentlik" tushunchalarining nazariy-metodologik asoslari falsafa, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlari kesimida tahlil qilingan. V.G. Mordkovich, L.P. Bueva, T.N. Malkovskaya, K.A. Abulxanova-Slavskaya va A.L. Juravlyov kabi olimlarning ijtimoiy faollik nazariyalari, shuningdek OECD tashkilotining transformativ kompetentsiyalar konsepsiyasi qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqot natijasida ikkala tushunchaning umumiy metodologik o'zagi — "sub'ektlik" va "transformativlik" g'oyalari — aniqlangan bo'lib, bu ularni yagona, integrativ pedagogik kategoriya ("ijtimoiy faollik kompetentligi") sifatida birlashtirishning nazariy asosini tashkil etadi. Maqolada, shuningdek, mavjud tadqiqotlarda talaba qizlarga xos gender xususiyatlarini hisobga oluvchi yondashuvning yetishmasligi ilmiy bo'shliq sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, kompetentlik, transformativ kompetentsiyalar, sub'ektlik, kompetentsiyaviy yondashuv, OECD, talaba qizlar, gender pedagogikasi, ijtimoiy faollik kompetentligi, nazariy-metodologik asos.

ИССЛЕДОВАНИЕ, РАЗЪЯСНЯЮЩЕЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЙ «СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ» И «КОМПЕТЕНТНОСТЬ»

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы понятий «социальная активность» и «компетентность» на стыке философии, социологии, психологии и педагогики. Рассмотрены и сопоставлены теории социальной активности таких учёных, как В.Г. Мордкович, Л.П. Бueva, Т.Н. Мальковская, К.А. Абульханова-Славская и А.Л. Журавлев, а также концепция трансформативных компетенций ОЭСР. В результате исследования выявлено общее методологическое ядро обоих понятий — идеи «субъектности» и «трансформативности», что составляет теоретическую основу их объединения в единую, интегративную педагогическую категорию («компетентность социальной активности»). В статье также обосновано отсутствие в существующих исследованиях подхода, учитывающего гендерные особенности студентов, что определено как научный пробел.

Ключевые слова: социальная активность, компетентность, трансформативные компетенции, субъектность, компетентностный подход, ОЭСР, студентки, гендерная педагогика, компетентность социальной активности, теоретико-методологические основы.

RESEARCH CLARIFYING THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE CONCEPTS OF "SOCIAL ACTIVITY" AND "COMPETENCE"

Abstract. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the concepts of "social activity" and "competence" at the intersection of philosophy, sociology, psychology, and pedagogy. The theories of social activity developed by V.G. Mordkovich, L.P. Bueva, T.N. Malkovskaya, K.A. Abulkhanova-Slavskaya, and A.L. Zhuravlev are examined and compared alongside the OECD's transformative competencies concept. The study reveals a common methodological core underlying both concepts — the ideas of "subjectivity/agency" and "transformativeness" — which forms the theoretical basis for integrating them into a unified pedagogical category ("social activity competence"). The article also substantiates the absence, in existing research, of an approach accounting for the gender-specific characteristics of female students, identifying this as a scientific gap.*

Keywords: *social activity, competence, transformative competencies, agency/subjectivity, competency-based approach, OECD, female students, gender pedagogy, social activity competence, theoretical and methodological foundations.*

KIRISH

Talaba qizlar ijtimoiy faollik kompetentligini rivojlantirish muammosini ilmiy asoslash uchun, avvalo, uning tarkibida yotgan ikki tayanch tushuncha — "ijtimoiy faollik" va "kompetentlik" — ning nazariy-metodologik ildizlarini alohida-alohida ko'rib chiqish, so'ngra ularning fanlararo kesishuv nuqtalarini aniqlash zarur. Bu ikki tushuncha turli davrlarda, turli fanlar doirasida mustaqil rivojlangan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ilmiy an'anaga ega. "Faollik" kategoriyasi falsafada insonning borliqqa nisbatan faol munosabatini ifodalovchi eng umumiy tushunchalardan biri sifatida qaraladi. Faollik falsafiy ma'noda sub'ektning ob'ektga nisbatan faol, o'zgartiruvchi ta'sirini bildiradi — bu yerda sub'ekt shunchaki tashqi ta'sirlarni qabul qiluvchi emas, balki borliqni ongli ravishda o'zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu falsafiy asosdan kelib chiqib, keyinchalik sotsiologiya va psixologiyada "ijtimoiy faollik" tushunchasi shakllangan — u insonning nafaqat tabiatga, balki ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ham faol, o'zgartiruvchi pozitsiyasini ifodalaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ayollar va qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga, ularning ta'lim, ilm-fan, tadbirkorlik va boshqaruv sohalaridagi ishtirokini oshirishga qaratilgan izchil davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va

oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni, 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son Qarori, 2019-yil 2-sentyabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-552-son Qonuni, 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni, 2026-yil 3-martdagi "Ayollar va qizlarni qo'llab quvvatlash turli havf - xatarlardan saqlash" PF-33-son Farmoni ijrosiga bag'ishlangan yig'ilishda qizlarning kasb-hunar egallashi, iqtisodiy mustaqil bo'lishi, o'z hayotiy qarorlarini ongli ravishda qabul qilishi jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi. Shuningdek, qizlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan "Dolzarb 90 kun" chora-tadbirlari samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida belgilanganligini ko'rish mumkin. Shu kabi bir qator qonuniy strategik hujjatlar va "Oliy ta'limni 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da talaba-yoshlarning, jumladan, qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va jamoatchilik mas'uliyati kabi fazilatlarni tarbiyalash vazifalari belgilab qo'yilgan. Bu esa oliy ta'lim tizimi oldiga talaba qizlarda ijtimoiy faollikni nafaqat tarbiyaviy tadbir, balki maqsadli shakllantiriladigan kompetentlik sifatida rivojlantirish vazifasini qo'ymoqda.

Talaba qizlarda ijtimoiy faollik kompetentligini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika fanida bir necha nazariy yo'nalishlar kesimida — falsafiy-sotsiologik, psixologik-pedagogik hamda amaliy-metodik jihatlardan tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu muammoning ilmiy o'rganilganlik darajasini tahlil qilish uchun uni shartli ravishda besh yo'nalishga ajratish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, "ijtimoiy faollik" tushunchasining nazariy-metodologik ildizlarini yorituvchi klassik va zamonaviy tadqiqotlar; ikkinchidan, talabalarda ijtimoiy faollik va fuqarolik ishtirokini shakllantirishga bag'ishlangan rus va MDH tadqiqotlari; uchinchidan, transformativ

kompetentsiyalar va fuqarolik kompetentligi bo'yicha xorijiy (G'arb) tadqiqotlar; to'rtinchidan, respublikamizda ijtimoiy faollik va gender masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar; beshinchidan, ushbu tadqiqotlar tahlili asosida aniqlangan ilmiy bo'shliq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VAMETODOLOGIYA

Ijtimoiy-gumanitar terminologik lug'atlarda "ijtimoiy faollik" tushunchasining nazariy asoslarini shakllantirishda bir necha olimning hissasi alohida ahamiyatga ega. V.G. Mordkovich o'zining metodologik tahlilida ijtimoiy faollikni sub'ektning muhim, ajralmas belgisi sifatida ko'rsatib, uni o'lchash va qayd etishning uslubiy muammolarini o'rta qo'ygan. L.P. Bueva ijtimoiy faollikni insonning faoliyat va muloqot orqali ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'lab, uni shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirining natijasi sifatida talqin etgan. T.N. Malkovskaya bu tushunchani birinchilardan bo'lib tarbiyaviy jarayon predmeti sifatida — ya'ni ijtimoiy faollikni maqsadli pedagogik ta'sir orqali shakllantirish mumkinligini asoslab bergan. K.A. Abulxanova-Slavskaya esa ijtimoiy faollik nazariyasiga sub'ektlik g'oyasini kiritib, faollikning eng muhim mezon sifatida shaxsning "sub'ektlik darajasi"ni — ya'ni u hayotiy voqealarga shunchaki ergashdimi yoki ularni oldindan ko'rib, tashkil etadimi — degan farqni ilgari surgan. A.L. Juravlyov rahbarligidagi Rossiya Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti maktabida esa muammo yanada kengroq — jamoaviy sub'ekt va birgalikdagi faoliyat psixologiyasi nuqtai nazaridan rivojlantirilgan, bunda shaxs faolligi alohida emas, balki guruh va jamiyat darajasidagi o'zaro ta'sirlar tizimida tahlil qilinadi.

MUHOKAMA

Pedagogik va ijtimoiy-pedagogik lug'atlarda ushbu tushunchaning umumlashtirilgan ta'riflari keltirilgan, ularda ijtimoiy faollik insonning dunyoga nisbatan faoliyat asosidagi munosabati, jamiyat uchun ahamiyatli, ijobiy o'zgarishlarni amalga oshira olish qobiliyati sifatida izohlanadi. Bu ta'riflarning barchasida umumiy

metodologik o'zak — "faoliyat", "sub'ektlilik" va "transformatsiya" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi kuzatiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ijtimoiy faollikdan farqli o'laroq, nisbatan yosh, XX asrning ikkinchi yarmida ta'lim iqtisodiyoti va kasbiy psixologiya doirasida shakllangan kategoriya hisoblanadi. Uning nazariy-metodologik asoslarini xalqaro miqyosda tizimlashtirishda OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning DeSeCo (Definition and Selection of Competencies) loyihasi alohida o'rin tutadi. D.S. Rychen va L.H. Salganik tomonidan tizimlashtirilgan ushbu konsepsiyada kompetentlik bilim, ko'nikma va munosabatlarning muvaffaqiyatli hayot va yaxshi faoliyat yurituvchi jamiyat uchun zarur bo'lgan integrativ birligi sifatida ta'riflangan.

M.V. Kolesnikovaning 2007-yilgi tadqiqotida (Omsk pedagogika universiteti) talabalar ijtimoiy faolligini kasbiy shakllanish jarayonida rivojlantirish masalasi o'rganilgan, biroq unda gender xususiyatlari va kompetentsiyaviy yondashuv hisobga olinmagan. E.V. Baxarovskaya (2015) talaba-yoshlar ijtimoiy faolligini boshqaruv ob'ekti sifatida, A.A. Nikolayeva (2010) esa uni fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirish omili sifatida tadqiq etgan. Bu ikkala ishda ham "kompetentsiya" tushunchasi faqat umumiy motiv yoki shaxsiy sifat darajasida tilga olinadi, mustaqil kompetentlik tizimi sifatida ishlanmagan.

N.U. Nurmatovanning 2023-yilgi PhD dissertatsiyasida ("Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti) oila, mahalla va maktab hamkorligi asosida o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasi tadqiq etilgan. Bu — respublikamizda qizlar ijtimoiy faolligiga bag'ishlangan eng yaqin ishlardan biri bo'lsa-da, u maktab o'quvchilari darajasida olib borilgan. Talabalar ijtimoiy faolligiga oid boshqa tadqiqotlar asosan tarbiyaviy ish yoki jismoniy faollik doirasida cheklangan.

Kompetentsiyaviy yondashuvning keyingi bosqichi — OECD "Learning Compass 2030" konsepsiyasi doirasida "transformativ kompetentsiyalar" g'oyasining ilgari surilishi bo'ldi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, transformativ kompetentsiyalar uch tarkibiy

qismdan iborat: yangi qadriyat yaratish, ziddiyat va dilemmalarni yarashtirish hamda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish. Bu uchta birgalikda shaxsni passiv ijrochidan faol, o'zgartiruvchi sub'ektga aylantirishga xizmat qiladi — bu g'oya "ijtimoiy faollik" tushunchasining falsafiy mazmuni bilan bevosita uyg'unlashadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, "ijtimoiy faollik" va "kompetentlik" tushunchalari bir-biridan mustaqil ravishda, turli ilmiy an'analar doirasida rivojlangan bo'lsa-da, ularning nazariy mazmunida sezilarli umumiylik mavjud: ikkalasi ham shaxsni passiv ob'ekt emas, balki faol, o'zgartiruvchi sub'ekt sifatida talqin etadi (bu — Abulxanova-Slavskaya va OECD transformativ kompetentsiyalar konsepsiyasida alohida yaqqol ko'rinadi). Aynan shu umumiylik — "sub'ektlik" va "transformativlik" g'oyalarining ikkala tushunchada ham markaziy o'rin tutishi — ularni yagona, integrativ pedagogik kategoriya ("ijtimoiy faollik kompetentligi") sifatida birlashtirishning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Shu bilan birga, tahlil yana bir muhim jihatni ochib beradi: mavjud tadqiqotlarning birortasida ham bu ikki tushuncha ongli ravishda, maxsus metodologik asoslash bilan birlashtirilmagan, ayniqsa bu birlashtirilgan kategoriyaning gender xususiyatlarini — xususan, talaba qizlarga xos ijtimoiylashuv, tarbiya va rivojlanish jihatlarini — hisobga oluvchi shaklda ishlab chiqilishi hali ilmiy tadqiqot predmeti bo'lmagan. Bu — dissertatsiyamizning nazariy-metodologik yangiligini belgilovchi asosiy nuqtalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- бульханова-Славская К. А. Деятельность и психология личности. — М.: Наука, 1980. — 335 с.
- ахаровская Е. В. Социальная активность студенческой молодежи как объект управления: дис. канд. социол. наук: 22.00.08. — Чита, 2015. — 213 с.
- иева Л. П. Человек: деятельность и общение. — М.: МГУ, 1978. — 216 с.
- уравлев А. Л. Психология совместной деятельности. — М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2005.
- олесникова М. В. Развитие социальной активности студентов в процессе

профессионального становления: на примере педагогического вуза: дис. канд. пед. наук: 13.00.08. — Омск, 2007. — 186 с.

альковская Т. Н. Воспитание социальной активности старших школьников. — Л.: ЛГУ, 1973.

ордкович В. Г. Социальная активность: некоторые методические проблемы фиксации и измерения // Факторы социальной активности городского населения. — М.: АН СССР, 1986. — 37 с.

иколаева А. А. Социальная активность как фактор формирования гражданской идентичности современной российской студенческой молодежи: дис. канд. социол. наук: 22.00.04. — Тула, 2010.

9. Bandura, A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. — New York: W.H. Freeman and Company, 1997.

10. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.